



Tadqiqot.UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCE.UZ

30 ИЮН  
№29

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

### "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 29-күп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

#### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

#### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

#### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

#### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

**1. Rajabov Muhiddin**

TURKISTONDA AHOLIGA TIBBIY YORDAM KO'RSATISH VA XOTIN-QIZLAR MASALALARI DAVRIY MATBUOT TALQINIDA (1870-1917 YILLAR)..... 7

**2. Serjanova Gulmira Sagidullaevna**

HUQUQ FANINI O'QITISHDA METODLARDAN FOYDALANISH ..... 10

**3. Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li**

XORAZMNING O'RTA ASRLARDAGI IQTISODIY VA MADANIY HAYOTNI O'RGANISHDA METALL BUYUMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI..... 11



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### TURKISTONDA AHOLIGA TIBBIY YORDAM KO'RSATISH VA XOTIN-QIZLAR MASALALARI DAVRIY MATBUOT TALQINIDA (1870-1917 YILLAR)

**Rajabov Muhiddin**  
O'zMU Tarix fakulteti "Tarixshunoslik,  
Manboshunoslik va tarixiy tadqiqot usullari"  
yo'nalishi I bosqich magistranti  
Telefon: +998 97 4619293

**Annotatsiya:** Turkiston davriy matbuotida o'lkadagi ijtimoiy ahvolga doir serqirra ma'lumotlar orasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish masalalari alohida o'rinni tu'tgan. Davriy matbuotda keng yoritib borilgan maqola va xabarlarda o'lkada tashkil qilingan shifoxonalar, ularning faoliyati, aholi orasida tarqalgan kasalliklar ularning oldini olish borasidagi tadbirlar kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** davriy matbuot, tibbiy yordam, doktor, shifoxonalar, tarixiy hujjatlar, mahalliy ayollar.

Tahlil natijalari yana shuni ko'rsatadiki, o'sha davr matbuoti sahifalarida, o'lkada 1883- yilda tashkil etilgan dastlabki shifoxona – xotin-qizlar va bolalar shifoxonasi haqida ma'lumotlar ham berib borilgan. N.N.Gundius, A.V.Poslavskaya va E.N Mandelshtamm Toshkentda mahalliy ayollar uchun ambulatoriya tashkil etish tashabbusi bilan 1882 yilda Turkiston general-gubernatoriga murojaat etganlar hamda ular ushbu ambulatoriyaning birinchi shifokorlari etib tayinlanganlar. Mazkur ambulatoriyani tashkil etish to'g'risidagi Nizomga<sup>1</sup> ko'ra, shifoxonada faqat tibbiyotchi ayollar xizmat qilishgan. Yordam so'rab murojaat qilgan ayollar va bolalarga bepul yordam ko'rsatilgan, shu jumladan, dorilar, suv muolajalari, oddiy operastiya va yaralarni bog'lash ishlari ham tekin amalga oshirilgan.

Matbuot xabarlaridan ma'lum bo'lishicha, keyinchalik Turkistonning boshqa shaharlarida ham bunday ambulatoriyalar birin-ketin tashkil etila boshlangan. Xususan, 1885 yilda Samarqand shahrida bunday kasalxonalar vujudga kelib, u Samarqand shahri boshqarmasi tomonidan moliyalashtirilgan<sup>2</sup>. Dorilar esa Samarqanddagi "Zemstvo" dorixonasi tomonidan bepul berilgan.

Turkiston matbuotida 1886 yilda Xo'jingga, undan keyin Andijon, Marg'ilon, Namangan. Qo'qon kabi shahallarda bunday shifoxonalar paydo bo'lganligi ham qayd etib o'tilgan. Mahalliy ayollar va bolalar uchun tashkil qilingan bu ambulatoriyalarning yillik hisoboti "Turkistanskie vedomosti" gazetasida e'lon qilib borilgan. Bu hisobotlar hajm jihatdan katta bo'lib gazetaning 2-3 betini egallagan hamda ko'pincha gazetaning bir nechta sonida bositgan. Hisobotni ambulatoriya mudirasi yozib, unda ayollar va bolalarning kasalxonaga murojaati, ular o'rtasida ko'p tarqalgan kasallik sabablari, murojaat etgan ayollarning milliy tarkibi ko'rsatilgan. Masalan, Toshkentda ayollar va bolalar ambulatoriyasi mudirasi A.V.Poslavskayaning hisobotida qayd etilishicha, 1885-yilda ambulatoriyaga 1749 ayol murojaat qilib, ular kasalxonaga 3812 marotaba qatnagan. Bemorlarning milliy tarkibi quyidagicha bo'lgan: o'zbeklar va tojiklar 1674 kishi bo'lib; umumiyy murojaat qilganlarning 95.5%ini. qozoqlar 49 nafar bo'lib, taxminan 2,9%ini, tatarlar 18 nafar bo'lib, ya'ni 1.02%ini, yaxudiyilar 8 nafar, ya'ni 0,4 %ini tashkil etgan.<sup>3</sup> Bizga ma'lumki, ayollarga tibbiy yordam ko'rsatishda tug'ruq va undan keyingi davr alohida o'rinni tutadi.

<sup>1</sup> Санобар Шодмонова. Т уркистон хотин-қизларининг жамиятда тутган ўрни // Жамият ва бошқарув. 2006.- №2.-Б.91-93

<sup>2</sup> Зиёев Н.Тарих-ўтмиш ва келажак кўзгуси. Тошкент: Г'афур Г'улом номидаги Адабиёт ва съннат нашриёти, 2000. -Б.286.

<sup>3</sup> Ниёзов Н.Н.Занарли хаёт // Тўла асарлар тўплами. Т.2.-Т.,1989.



XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Turkistonda ayollar bolalarni uy sharoitida dunyoga keltirishgan, faqat katta shaharlarda doyalar bo‘lgan, qishloqlarda esa tug‘ayotgan ayolning yaqin qarindoshlari: onasi, qaynonasi, opalari va boshqa yaqinlari tug‘ruq jarayonida ishtirok etib, yordam ko‘rsatganlar. Bu davrda bemorlar ahvoli faqat o‘ta og‘ir bo‘lgandagina, ayrim hollarda istisno tariqasida shifokorlarga murojaat qilingan. Ta’kidlash joizki, bunday holatda ayol shifokorlar bilan bir qatorda erkak shifokorlar ham bemorlarga yordam ko‘rsatganligini tarixiy hujjatlar tasdiqlaydi.

Turkistonda birinchi tug‘uruqxona Toshkent 1880-yilda “Mehr-muruvvat” jamiyatni qoshida tashkil etilgan. Ushbu tug‘uruqxona doktori D.S. Palienkoning yozishicha, Gimmer, X.A. Batirshin, Yoganson kabi erkak shifokorlar bir necha yuz marotaba mahalliy millatlardan bo‘lgan homilador ayollarga yordam ko‘rsatganlar. D.S. Palienkoning o‘zi Toshkentdagi 10 yildan oshiq faoliyati davomida biror marta ham tug‘ayotgan ayolga tibbiy yordam ko‘rsatmagan vaqtin bo‘lmagan boshqa tomondan esa, bu davrda tug‘ayotgan ayolning ahvoli juda og‘ir bo‘lganda ham, uni shifoxonaga yotqizishga qattiq qarshilik ko‘rsatgan oilalar ko‘pchilikni tashkil etgan. 1916 yilda “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida ta’kidlanganidek “hattoki ba’zi nihoyatda qattiq kasal bo‘lib, yormoq yoki kesmoqlik lozim bo‘lgan kasal xotinlar o‘limlariga rozi bo‘lsalar ham, erkak jarroh doktorga ko‘rsatmoqni aslo xohish qilmas edilar”. Bunday hollarda doktorlar uy sharoitida qo‘lidan kelgancha tibbiy yordam berishga harakat qiladilar.

1916 yilning dekabrida Toshkent shahar shifoxonasining jarrohlik bo‘limi qoshida ginekologiya bo‘limining ochilishi ayollarga tibbiy yordam ko‘rsatish ishida muhim voqeasi bo‘lgan. Unga kerakli asbob-uskunalar Peterburgdan olib kelingan. Bu shifoxonaga dastlab Toshkent aholisining yevropalik qatlamiga mansub ayollar murojaat etgan bo‘lsalar, keyinchalik mahalliy aholi ham tibbiy yordam so‘rab kela boshlagan.<sup>1</sup> Bu shifoxonani tashkil etishda va uning faoliyatida doktor A.A. Shoroxova jonbozlik qo‘rsatgan shuningdek, unda turkistonlik mahalliy aholi vakili, birinchi ginekolog Gulsum Asfandiyorova ham faoliyat yuritgan. Gulsum Asfandiyorova 1880 yilda Toshkentda tug‘ilib, 1908 yilda Toshkentda ta’lim olgandan keyin Peterburgdagi ayollar tibbiyot institutida o‘qigan. Institutni tugatgan Gulsum Asfandiyor Turkistonning turli joylarida ayollarga tibbiy xizmat ko‘rsatgan, lekin eng uzoq payt, ya’ni 29 yil Toshkent ayollariga tibbiy yordam bergen hamda shifoxonaning bosh shifokori o‘ribbosari vazifasida ishlagan.

Bundan tashqari, mahalliy ayollar faqat Toshkentning eski shahar qismidagi ambulatoriyaga boribgina qolmasdan, balki umumiy shahar shifoxonasiga ham yordam so‘rab murojaat qilishgan. D. S. Palienko bunday ayollar soni kuniga 30-40 bemorni tashkil etar edi, deb ta’kidlaydi. Shuni aytish kerakki, shahar kasalxonasida shifokor va xizmatchilar ichida birorta ayol bo‘lmasada, ayollar bu yerga ham yordam so‘rab kelganlar. Hatto bu erda yordam so‘rab murojaat qilgan bemor ayollar bir necha bor operastiya qilinganini va ular haftalab shifoxonada qolishiga to‘g‘ri kelganini yozadi, ya’ni Toshkent ayollar shifoxonalarda statsionar ravishda davolana boshlagan edilar. 1900-yilda Toshkent shahar dumasida aholining kambag‘al qismiga bepul dori berishni to‘xtatish masalasi ko‘tariladi, ammo doktor A. T. Shvarst talabi bilan shahar dorixonalarida ayollar va bolalardan pul olmaslik haqida qaror qabul qilinadi. 1906 yilda “Samarqand” gazetasida qayd etilishicha, doya va uqalovchi (massajchi) E.I. Kapelyush-Gerstfeld Samarqand aholisini xususiy ravishda davolanishga taklif qilib, aholining kambag‘al qatlamiga mansub kishilarni bepul davolashni va’da qilgan. Mahalliy aholi uchun ochilgan ambulatoriyalardagi ahvol esa yanada ayanchli bo‘lganligi haqida jurnalistik tekshiruvlar olib borgan gazeta muxbirlari xabar berishgan. Bemorlar nafaqat ichkarida, balki ko‘chada ham navbat kutib turishgan. Ambulatoriyaning bog‘lash, dori berish xonalari, qabulxonasida ham ahvol ayanchli bo‘lgan. Turkiston matbuotida nafaqat ambulatoriya shifoxonalari, balki maxsus shifo maskanlariga ham e’tibor qaratilib, ularni tashkil etish takliflari kiritilgan hamda bu sohada amalga oshirilgan ishlar haqida axborot berib borilgan. Gazetalarda Turkiston aholisi orasida keng tarqalgan qasalliklardan yana biri bezgak (malyariya) bilan kasallanganlar haqida ular orasidagi o‘lim holatlari hamda ularni davolash usullari to‘g‘risida bat afsil ma’lumotlar keltiriladi.

Turkiston matbuotida Toshkentdagi 1892-yil vabo epidemiyasi haqida bat afsil xabarlar berilgan. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, faqat Toshkent shahrida 1892- yilning 7-iyunidan 18- avgustigacha shifokor nazoratida davolangan 669 kishidan 307 bemor vafot etgan. Bundan tashqari, shifokor nazoratida bo‘lmagan 1201 bemor vafot etgan. Gazetaning 1892-yilgi sonlarida Toshkent shahri

<sup>1</sup> Мухаммаджонов М. Турмуш уринишлари.-Тошкент: Ўздавнашр, 1978 йил.-Б-45



aholisi vabo epidemiyasidan aziyat chekkanlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.<sup>1</sup> Jizzax shahrida shifokor nazoratida 93 bemor bo'lgan bo'lsa, shulardai 44 nafari vafot etgan, shifokor nazoratida bo'Imagan 2412 kishi vabodan ko'z yumgan. Turkistonning barcha hududlarida shunday ayanchli ahvol yuz bergenligini gazetalar xabar qiladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardai ko'rindikli, bir tomondan, mahalliy aholiga epidemiyalar vaqtida yetarlicha tibbiy yordam ko'rsatmayapti. Matbuot materiallaridan ma'lum bo'lishicha, teri kasalliklari bilan og'iganlar hamda bo'qoq kasalidan aziyat chekkanlar aholi orasida tez-tez uchrab turganligi qayd etilgan. Shuningdek, Turkistonda Yevropa shifokorlariga noma'lum bo'lgan kasalliklardan avg'on yarasi (pasha xo'rda) va rishta kasalliklari ham keng tarqalgan bo'lib, Teydenreyx, Rapchevskiy. P.F.Borovskiy kabi shifokorlar bu kasallik sabablarini tadqiq qilishgan va ularning oldini olish choralarini taklif etishgan .

N.I.Gabbinning ma'rzasasi asosida tayyorlangan maqolada jahon tajribalaridan misol keltirib, aholini sifatli suv bilan ta'minlash hisobiga ko'pgina sog'likni saqlash borasidagi muammolarni hal qilish mumkinlini, suv quvurlari va kanalizasiya quvurlari o'tqazilgan mamlakatlarda aholi orasida o'lim miqdori keskin kamayganligi, chunki ularda bu ishga keraksiz ish deb qaramasdan, shu yo'l bilan odamlar sog'ligi va hayoti saqlanib qolinayotgani aytildi.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мустафаева Н."Самарканд" газетасининг Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни // Ўзбекистон тарихи. 2002.-№3.-Б.48-53.
2. Санобар Шодмонова. Т уркистон хотин-қизларининг жамиятда тутган ўрни // Жамият ва бошқарув.2006.-№2.-Б.91-93
3. Мустафаева Н."Самарқанд" газетасининг Туркистон ижтимоий-сиёсий ва маданий хаётида тутган ўрни // Ўзбекистон тарихи. 2002.-№3.-Б.48-53.
4. Тайронов Ё. XX аср бошларида Туркистонда ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий хаёт масалаларининг миллий матбуотда ёритилиши // Ўзбекистон тарихи. 2008.-№4.-Б.47-53.

1        Санобар Шодмонова. Туркистон тарихи- матбуот кўзгусида,Т.,"Янги нашр" 2011 йил –Б-56



## HUQUQ FANINI O'QITISHDA METODLARDAN FOYDALANISH

Serjanova Gulmira Sagidullaevna

Qoraqalpoq davlat universiteti akademik litseyi  
Milliy istiqlol g'oyasi huquq va ma'naviyat asoslari fani oqituvchisi

Mustaqillik, fuqarolik jamiyati va demokratiya tushunchalari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, mustaqil mamlakatni demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati institutlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

SHu bois yurtimizda istiqlolning ilk kunlaridanoq demokratik yangilanish, erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo'li tanlab olindi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, bu yo'lni har kim o'ziga xos yo'sinda bosib o'tadi. O'zbekiston demokratiyaning fundamental tamoyillariga asoslangan, ularga qat'iy rioya etgan holda, ayni paytda o'z harakatlarini xalqimizning tafakkuri, necha ming yillik turmush tarzi bilan muvofiq ravishda olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. SHunisi diqqatga sazovorki, oldimizga qo'yilgan asosiy maqsad va ustuvor vazifalar mamlakatimizni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyiliga asoslangan. Bu – demokratik islohotlarimiz izchil va tadrijiy, bosqichma-bosqich va uzlusiz tizimli jarayon ekanining yana bir isbotidir.

Huquqiy davlat – jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiyligi tashkilotdir. Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi va ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, sudning mustaqilligi ta'minlanadigan, huquqni muhofaza etuvchi organlari ishi samarali bo'lган, haqiqiy xalq hokimiyatni, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlat.

Huquqiy davlat davlatning rivojlanganlik darajasini belgilab beradi va uning quyidagi belgilari mavjud: birinchisi, fuqarolarning huquq va erkinliklarining huquqiy va har tomonlama kafolatlanishi; ikkinchisi, huquq va qonunning ustuvorligi; uchinchisi, qonunlarning to'g'ri amal qilishi; to'rtinchisi, fuqarolarning davlat oldidagi mas'uliyati va aksincha, davlatning fuqarolar oldidagi mas'uliyati; hokimiylatlarning taqsimlanish prinsipining amaliyotga tatbiq qilinishi; beshinchisi, jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, demokratiya, qonuniylik va konstitutsiyaviylik rejimlarining mavjudligi.

Prezidentimiz qayd etganidek, "Huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi"

Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi.



## XORAZMNING O'RTA ASRLARDAGI IQTISODIY VA MADANIY HAYOTNI O'RGANISHDA METALL BUYUMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Allanazarov Sirojbek Bekchan o'g'li

Urganch davlat universiteti tarix fakultet talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm vohasida o'rtalarda metall buyumlar yasashning rivojlanishi va uning iqtisodiy hayotdagi ahamiyati taxlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** dehqonchilik, hunarmandchilik, arxeologik tadqiqotlar, ijtimoiy hayot.

XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgacha qadimiy Xorazm zamini yodgorliklarida davom etayotgan arxeologik tadqiqotlarda to'plangan ko'plab topilmalar moddiy va ma'naviy madaniyatimizni yorituvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu arxeologik topimalarni turli sohalarga ajratgan holda madaniy qatlamlar bo'yicha davrlashtirish, tasnif qilish va tavsiflash, umumlashtirish vatanimiz tarixining ochilmagan yangi sahifalarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilk o'rtalarda Xorazmnинг shahar va qishloqlari hayotida hunarmandchilikning turli sohalari muhim o'rinni egallay boshlagan. Jumladan metallsozlik mahsulotlari tarixiy rivojlanishning barcha bosqichlaridagi sivilizatsiya jarayonlarida ijtimoiy va madaniy hayotning ko'rsatkich mezonlaridan biri bo'lib kelgan.

Yozma manbalarda X asrdan Xorazmda savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, dehqonchilik madaniyati tarraqqiy qilganligi ta'kidlanadi. Ma'muniylar va Anushteginlar sulolasi hukmdorligi davrida Xorazmnинг markazlashgan davlatga aylanishi xalq xo'jaligining barcha sohalari kabi metallsozlik hunarmandchiligi rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. Vohada X-XIII asrlar boshi va XIII-XIV asrlarda metallsozlik tarraqqiyotini belgilovchi mahalliy rudani qazib olish yo'lga qo'yilgan. Sultonuvays tog' tizmalaridagi Aqtog' makoni (X-XIV asrlar), Achchiq tog' tepaligi (X-XIII asrlar boshi), Shayxjalil tog'i (XII-XIV asrlar), Zangi-bobo (XI-XIII asrlar boshi) xududlaridagi konlardan mis rudasi qazib olingen va bu joylar rudani qayta ishlovchi markazlar bo'lgan.

Xorazmda metallsozlik sohalarining gurkirab o'sishi mahalliy xom ashyodan tashqari, mis va boshqa metall konlari mavjud va hunarmandchilik sohalari taraqqiy qilgan markazlar bilan savdo-sotiq aloqalarining keng yo'lga qo'yilishi bilan ham qisman bog'liq. X-XIV asrlardagi iqtisodiy rivojlanish natijasida talab va ehtiyojning kuchayishi metallsozlikda mahsulot turlari ko'payishiga va sifatining oshishiga ta'sir ko'rsatgan. O'sha davrdagi metall buyumlar yasalishi, bezatilishi Xorazmnинг Movarounnahr, Xuroson hududlari bilan madaniy aloqalarining keng yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu misgarlik mahsulotlarida yoqqol ko'zga tashlanadi.

Xorazm arxeologik materiallari tahlillari ham o'sha davrlarda dehqonchilik, duradgorlik qurollari, qulf, qurol-aslahalar, xo'jalik va ro'zg'or buyumlari ixtisoslashgan sohalarda ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi. Hatto, yodgorliklardagi arxeologik tadqiqotlar XII-XIV asrlarda Xorazmnинг ba'zi shaharlarida metallsozlik mahallalari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. O'sha davrga oid Shemaxa qal'anining shimoli-g'arbiy qismida temirchilar mahallasi, Shaxrlik yodgorligi sharqida misgarlik, janubi-sharqiy qismida temirchilik mahallalari aniqlangan.

Shuningdek, Misdakxon va Janpiq-qal'a shaharlari Xorazmnинг XII-XIV asrlarda shimoldagi yirik metallsozlik markazlaridan bir hisoblangan. Temirchilik hunarmandchilik nafaqat yirik shaharlarda balki qishloq hududlarida ham faoliyat ko'rsatgan. Buni XIII-XIV asrlardagi Aqcha-Gelin qishloq makonidagi temir shzlaklari va kukun qoldiqlari tasdiqlaydi.

Vohaning shahar va qishloq xududlarida temirchilik ustaxonalari va ko'plab temir mehnat qurollarning topilishi, soha faoliyatining dehqonchilik markazlari bilan o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanganligini ko'rsatadi.

Xorazmda o'rtalarda hunarmandchilikning turli sohalari taraqqiy qilgan bo'lsa ham voha hali agrar davlat edi. Xalqning asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik ishlari bilan shug'ullanishgan. O'rtalarda qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini atrofdagi ko'chmanchi xalqlar va Sharqiy Yevropa davlatlariga eksport qilish Xorazm iqtisodiyatining asosini tashkil etgan.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi sohalarining rivoji va dehqonchilik maydonlari kengayishida, dastavval temirdan yasalgan mehnat qurollarning takomillashuvi va keng tarqalishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, Xorazmnинг antik davr yodgorliklarida omoch tishi, bel,



ketmon kabi dehqonchilik qurollari deyarli kam uchramaydi.

Arxeologik topilmalar tahlili Xorazm vohasi xalqlari dehqonchilik ishlarida omoch va bellardan keng foydalanganligini va mahalliy temirchilar tomonidan tayyorlanganligidan dalolat beradi. Xorazmning VIII-XIV asrlarga oid uchta shakldagi ketmonlar xo‘jalik va dehqonchilik ishlarida keng foydalangan. VIII-XIV asrlar asrlarga oid bellar Xorazmda dehqonchilik va xo‘jalik ishlarida keng foydalanganligidan dalolat beradi.<sup>1</sup>

Demak, ketmon, bel kabi mehnat qurollarining takomillashishi yerga ishlov berishda tuproq unumдорligining oshishiga va dehqonchilik madaniyati taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

### Foydalanaligan adabiyotlar

1. Манылов Ю.П. Археологические материалы в фондах государственного музея искусств Каракалпакской АССР. // Вестник ККФАН РУз. – Нукус, 1982
2. Белиницкий А.М. Раскопки согдийских храмов в 1948-1950 гг. // МИА.–М., 1953.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Соч. в 9-х т. – М.: Наука, 1963.

<sup>1</sup> Манылов Ю.П. Железные орудия труда VIII в. с городища Ток кала ... -С. 80-83

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

**Эълон қилиш муддати: 30.06.2021**

**Контакт редакций научных журналов:** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000